




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE CENTRAL ASIAN FACTOR IN ENSURING A MORALLY STABLE ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN

Javlon Saidrakhmanovich Iymanov

Associate Professor

University of Economics and Pedagogy

Andijan, Uzbekistan

E-mail: Iymanov81@umail.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: Spiritual, stability, international cooperation, region, partnership, equality, friendship, positive result.

Received: 28.06.24

Accepted: 30.06.24

Published: 02.07.24

Abstract: This article examines the importance of Central Asia in ensuring spiritual stability in Uzbekistan, historical, spiritual, cultural, social factors of unity of the countries of the region, measures taken to ensure a spiritually stable environment in Uzbekistan.

О'ЗБЕКИСТОНДА МА'НАВИЙ БАРQАРОР МУHИТНИ TA'MINLASHDA MARKAZIY OSIYO OMILI

Javlon Saidrakhmonovich Iymanov

Dotsent

University of Economics and Pedagogy

Andijon, O'zbekiston

E-mail: Iymanov81@umail.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ma'naviy, barqaror, xalqaro hamkorlik, mintaqa, sheriklik, teng huquqlilik, do'stlik, manfaatli natija.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda Markaziy Osiyoning ahamiyati, mintaqa davlatlari birligining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy omillari, O'zbekistonda ma'naviy barqaror muhitni ta'minlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan.

ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЙ ФАКТОР В ОБЕСПЕЧЕНИИ МОРАЛЬНО СТАБИЛЬНОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Жавлон Сайдрахманович Ийманов

Доцент

University of Economics and Pedagogy

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Духовное, международное сотрудничество, регион, партнерство, равенство, дружба, положительный результат.	Аннотация: В данной статье рассматривается значение Центральной Азии в обеспечении духовной стабильности в Узбекистане, исторические, духовные, культурные, социальные факторы единства стран региона, меры, принимаемые для обеспечения духовно стабильной среды в Узбекистане.
------------------------	--	---

KIRISH

Mamlakatimizda bugungi shiddatkor dunyo hamjamiyatida Mustaqil O‘zbekiston negizida Yangi O‘zbekistonni barpo etish, bu orqali Markaziy Osiyo mintaqasida azaliy milliy qadriyatlarimiz, boy ma’naviy merosimizni inobatga olgan holda, mintaqada ma’naviy barqaror muhitni shakllantirishni yangi bosqichga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari dunyo hamjamiyatida o‘ziga xos va mos o‘rinda turgan subyekt sifatida, avvalo yaxshi qo‘schnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida barcha sohalardagi aloqlar hamda barqarorlik masalalarida o‘z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda vaziyat o‘zgardi. Mintaqqa davlatlari o‘rtasida do‘stona aloqalar mustahkamlandi. Buni Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi [1] farmoni bilan yanada mustahkamladi.

Mamlakatimiz olimlaridan Otamuratov S.S. Globallashuv milliy-ma’naviy xavfsizlik, Nazarov N.A. Markaziy Osiyo polietnik sotsiumida millatlararo munosabatlar takomillashuvi [2], Qaxxorova M., To‘ ychieva H., Jamiatda ma’naviy-axloqiy muhit va uning asosiy indikatorlari [3], Jo‘ raev S. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiyasi [4], Saidolimov S.T. Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minalash muammolari [5], To‘ ychieva S. Markaziy Osiyo mutafakkirlari shaxs ma’naviyatining shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati [6], Rahmatullaev E. Preventiv diplomatiya [7], Xaydaraliev Sh.A. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minalashda xalqaro tashkilotlar va O‘zbekistonning o‘rni [8] haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ilmiy maqolada tahlil usullar, sintez, tizimli yondashuv, falsafiy-mantiqiy fikrlash, falsafiy tahlil, guruhash, ekspert baholash va taqqoslash metodlaridan foydalanilgan.

Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur, [9] – deya ta’kidlagan edi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023 yil 22-dekabr kungi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida. O‘zbekiston xalqining ma’naviyati esa tarixan bir bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlar xalqi bilan chambar-chas bog‘liqdir.

Markaziy Osiyo hududlardagi qardosh xalqlarimizni asrlar davomida do‘stlik, mushtarak ma’naviy qadriyatlar bir-biriga bog‘lab kelgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda vaziyat o‘zgardi. Mintaqada davlatlari o‘rtasida do‘stona aloqalar mustahkamlandi. Buni Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni [10] bilan yanada mustahkamladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy birligi g‘oyasini ulug‘lash, ilmiy, madaniy-ma’rifiy aloqalarini takomillashtirish, tinchlik va osoyishta hayot yo‘lida do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash borasida ishlar mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. [11] Chunki, mustaqillikning ilk yillarda Markaziy Osiyo davlatlari, xalqlari birlashib, o‘z madaniy qadriyatlariga tayangan holda dunyoning gegemon davlatlari ta’siriga qarshi turishga qodir kuchga aylanishi mumkin edi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Turkiston zamini xususida aytgan quyidagi fikrlari g‘oyatda ahamiyatlidir, “Tasavvur qilingki, ota yurtimiz Turkiston katta bir uy, buyuk bir ro‘zg‘or, buyuk bir oila. Bu oila farzandlari qanchalik yaqin va ahil bo‘lsa, ro‘zg‘or ham shunchalik obod va to‘kin bo‘ladi. Bundan chiqadigan xulosa: Markaziy Osiyo mintaqasida ham iqtisodiy, ham ma’naviy, ham siyosiy jihatdan yagona muhit tashkil qilish – bugungi kunning eng dolzarb masalasidir”. [12] Mintaqada birligi va jipsligi doimiy ravishda xavfsizlikni ta’minalash uchun asosiy e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlardan bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, birlashganda ham o‘zligimizni yo‘qotmasdan harakat qilishimiz lozimligini ko‘rsatadi.

Bu borada, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek, Markaziy Osiyo har biri o‘ziga xos tarixiy, etnik-madaniy ildizlarga, diniy va ijtimoiy turmush tarziga, o‘z mentalitetiga ega bo‘lgan mamlakatlar va xalqlar yashaydigan mintaqada ekanini doimo yodda tutish muhim. Ularning har biri vazmin, juda e’tibor bilan, ta’bir joiz bo‘lsa, hurmat-ehtirom bilan yondashishni talab qiladi. [13]

Bundan kelib chiqadiki, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatga kirishayotgan har bir davlat, albatta, mintaqadagi beshala davlat mentalitetini o'rganishi va ularning har biriga alohida munosabatda bo'lishini talab etadi. Shuningdek, bu davlatlarning barchasi o'ziga xos davlatchilik tuzumiga ega bo'lganligi uchun sinchiklab o'rganish lozim.

Shaxsning milliy davlatchiliga bo'lgan pozitiv munosabati hamda fuqarolik mavqeyini idrok etish ham milliy o'zlikni anglashning komponentlari hisoblanib, tafakkur rivojiga imkon yaratadi. Tafakkurdagi bunday rivojlanish ko'p millatli jamiyatda millatlararo munosabatlar takomillashuvini ta'minlaydi. Bugun har bir millat vakili va har bir shaxs o'zligini bilib, milliy kelib chiqishini chuqur anglab idrok etgan holda umumsivilizatsiya taraqqiyotiga hissa qo'shishi lozim. [14] Shundagina biz mintaqada o'zimiz xohlagan xavfsiz va ma'naviy barqaror muhitni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiyasida Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiradigan quyidagi umumiyligida xususiyatlar keltirilgan:

- Yaxlit ma'naviy va madaniy-tarixiy meros, kishilar e'tiqodi, tili, mentalitetining mushtarakligi;
- Suv arteriyalari, kommunikatsiya, energetika zaxiralarining umumiyligi;
- Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasi, aholi turmush sharoitlarining nisbatan bir-biriga yaqinligi;
- Jamiatni demokratlashtirish, huquqiy davlatni shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy muammolarning o'xshashligi;
- Mintaqaviy muammolar - Oroldagi ekologik inqiroz, suv va yoqilg'i-energetika zaxiralaridan oqilona foydalanish, jahon transport, axborot va boshqa kommunikatsiya tizimlariga integratsiyalashuv masalalari. [15]

Mazkur omillarning barchasi mintaqaviy xavfsizlikni asosini tashkil etgan mintaqaviy integratsiyaning zaruratini belgilab beradi. Ushbu masala yuzasidan mintaqada davlatlari siyosatida uchta o'zaro aloqador tendensiya kuzatiladi: **dezintegratsiya, reintegratsiya, integratsiya**.

Dezintegratsiya jarayoni 1991-1996 -yillargacha davom etdi. Bu jarayon o'zaro yaqinlashuv emas, o'zaro yiroqlashuvni keltirib chiqardi. Mintaqada davlatlari o'rtaida aloqalar uzilishi natijasida davlatlarda ishsizlar sonining ko'payishi, aholi turmush darajasining pasayishi kuzatildi. Ayrim davlatlarning tashqi qarzlar niroyatda ko'tarilib ketdi. Yangi mustaqil davlatlarda milliy g'oya va tashqi siyosat strategiyasining shakllanayotgan bir davrida, mintaqada yagona xavfsizlik tizimining mavjud emasligi oqibatida mintaqaga tutash hududlardagi xavf-xatar va tahdidlarning mintaqaga kirib kelishi kuzatildi. Bu esa mintaqadagi vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatgan holda, ayrim tashqi kuchlar qo'lida ta'sir etish vositasiga aylandi.

Mintaqadagi keyingi bosqich **reintegratsiya** jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, u 1996-2001 - yillarga to‘g‘ri keldi va yangicha ko‘rinish kasb etdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi eski iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari borgan sari kamayib, davlatlarning iqtisodiy hamkorlikni tiklash va rivojlantirishga bo‘lgan obyektiv intilishlari tobora kuchaydi.

Keyingi bosqichda mintaqada strategik muvozanatni saqlash, mintaqaviy muammolarni birgalikda hal etish, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish kabi masalalar mintaqa davlatlarining tashqi siyosatida ustuvor vazifaga aylandi. [16]

Bugungi dunyoning ma’naviy-ruhiy holati shundayki, inson hayotini, yer yuzida tinchlik-totuvlikni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish uchun har kim o‘z holicha emas, birgalikda, bamaslahat ish ko‘rshini zarur. Hozir dunyo miqyosida yuz berayotgan ijobjiy hamda salbiy o‘zgarishlar, bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lib olish, yer osti va yer usti boyliklariga egalik qilish harakatlari kuchayib borayotgan ekan, har bir mamlakatning ichki va tashqi siyosatida umumiy maqsadlarga erishish yo‘lida jipslashish, muammolarni tomonlarning manfaatlariga mos ravishda hal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning asosiy sababi shuki, inson hayoti bilan bog‘liq murakkab muammolar bir mamlakatda, bir mintaqada emas, butun dunyoda umumlashib bormoqda. Iqtisodiy, moliyaviy tanglik, axborot oqimining globallashuvi, savdo-sotiq siyosatidagi kelishmovchiliklar, kapital oqimining tezlashishi, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishi bilan bog‘liq ziddiyatlarni hal qilish uchun ichki va tashqi imkoniyatlardan unumli foydalanishdan boshqa chora yo‘q. Har kim o‘z holicha, faqat o‘zining tor manfaatlarini o‘ylab ish tutadigan, qo‘sni davlatlarda, yaqin-yiroq mamlakatlarda sodir bo‘layotgan ijtimoiy voqelikdan bexabar holda yashash endilikda mumkin emas. Faqat birlashsakkina rivojlanishimiz, taraqqiy etishimiz va mintaqadagi muammolarni birgalikda yengishimiz mumkin bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning yaxshi qo‘schnichilik, manfaatli hamkorlik borasidagi oqilona siyosati zamirida tarixan birga yashab kelgan xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, uzilgan qadriyatlarimizni bog‘lash, tarixning sinovli pallasida iymon-e’tiqoddan kechmaslik zamirida bugunni, ertani hamda mintaqa kelajagini o‘ylab ish tutishdek buyuk maqsad yotadi. Markaziy Osiyo – asrlar davomida qondosh xalqlar tinch va totuv yashab kelayotgan jahondagi kam sonli mintaqalardan biridir. Bizni mushtarak tarix va madaniyat, yagona muqaddas din, o‘xshash mentalitet, ma’naviy-axloqiy qadriyat va an’analar hamda ajralmas do’stlik chambarchas bog‘lab turadi. Bularning barchasi xalqlarimiz farovonligi va ravnaqi yo‘lida Markaziy Osiyo davlatlari salohiyatini birlashtirishga qaratilgan o‘zaro manfaatli hamkorligimiz uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. [17]

Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari bu siyosat natijalarini hozirning o‘zida ko‘zlar bilan ko‘rib, shunday kunlarga yetkazganiga shukronalar aytmoqda. Qadim-qadimdan suvi, bozori va

mozori, tili va dini bir xalqlar o‘rtasiga qo‘yilgan sun’iy g‘ovlar, to‘sıqlar olib tashlandi. Bir-biridan ajratib qo‘yilgan oilalar birlashdi.

Qolaversa, Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida o‘tkaziladigan iqtisodiy va gumanitar yo‘nalishdagi tadbirlar donishmand dunyoning bu qutlug‘ mintaqasida yashayotgan xalqlar hayotiga, turmush tarziga g‘oyat ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hayotning bugungi tezkor shiddati mamlakatlarni, davlat va jamoat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor-ziyolilar, xotin-qizlar, yoshlar vakillarini qo‘lni qo‘lga berib, mushtarak maqsad yo‘lida birlashib, harakat qilishni taqozo etmoqda. Tarixning bu imkoniyatidan samarali foydalanish barchamizning burchimizdir. [18] Shundagina biz oldimizga qo‘ygan maqsadimiz, ya’ni Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minalash yo‘lida ma’naviy qadriyatlarimizni birlashtirgan bo‘lamiz.

Ma’lumki, Sobiq ittifoq davrida milliy qadriyatlar, qardoshlik, urf-odatlarimiz haqida baralla yozish u yoqda tursin, hatto, do‘st-u birodarlaringga gapirish ham muammo tug‘dirar edi. Chunki, ittifoqning siyosati Markaziy Osiyo mintaqasida tarixiy taraqqiyotni bирgalikda boshidan kechirgan xalqlarni birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘lgan. Aynan shu sababli, 1924 -yilda Turkiston o‘lkasidagi bir tomirga birlashgan xalqni parchalash va bir-biridan ayri holatda tutishni, qisqa qilib aytganda “Bo‘lib tashla hukmronlik qil” tamoyili asosida siyosat yuritilan. Natijada, bularning birini o‘zbek, birini qozoq, birini tojik, birini qirg‘iz va yana birini turkman deya ularning shaxsiy “men”ini uyg‘otuvchi urug‘lar sochilib, har birini alohida-alohida davlat shaklida boshqarishni, bir xalqni bir-biriga raqobatchi qilib shakllantirdi”. Tarixiy nuqtai nazardan olganda, Markaziy Osiyo davlatni milliylik belgisiga qarab tashkil etish an’analari ega emas edi. Bu yerda Rossiya tomonidan mustamlaka qilib olinguncha mavjud bo‘lgan hamma davlatlar asosan sulolaviy yoki hududiy (Buxoro, Qo‘qon, Xiva xonliklari) prinsiplar bo‘yicha tashkil etilar edi”. [19]

Natijada, sal kam 70 yillik ayrılıq, manmanlikni yengib, bahamjihatlik bilan mustaqil davlatlarimizni, mintaqamizni xavfsizligini ta’minalashimiz uchun bo‘lgan birlashish tushunchamizni shakllantirish uchun ham oradan ko‘p vaqtlar o‘tib ketdi. Ayniqsa, sobiq sovet ittifoqi davrida mintaqqa xavfsizligi yoki mintaqqa xalqlarining qadriyatları, urf-odatlari, an’analari haqida gapirishning umuman iloji bo‘lmaganligi sababli, turg‘unlik davrida ulg‘aygan avlodning bu kabi masalalarga e’tibor bermaganligini ham tushunsa bo‘ladi. Biroq, kim bo‘lishidan, qaysi sharoit yoki muhitda ulg‘aygan bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘z xalqining obro‘-e’tibori, qadr-qimmati va sha’ni uchun kurashib kelganlarini, mintaqqa xalqlarini birlashtirish va rivojlantirish yo‘lida jon bergen ajdodlarimizning sa’y-harakatlarini inobatga olishimiz lozim bo‘ladi. Xususan, Jadidchilik asoschilari namoyondalari, Munavvar qori, Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy kabi allomalarimiz shu xalq, shu el dardi bilan yashaganligi, mintaqqa rivoji uchun imkon qadar harakat qilganligini ko‘rish mumkin.

“Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergen yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”. [20]

Tarixdan ma’lumki, mintaqada istiqomat qilgan xalqlarning o‘ziga xos umumbashariy axloqiy qarashlari mavjud bo‘lgan. Jumladan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy va umumbashariy axloqiy qarashlari:

- a) mintaqadagi ichki tarixiy-madaniy an'analar, izlanishlar;
- b) tashqi tarixiy-madaniy va xalqaro aloqalar;

v) diniy tajribalar, ma’naviy-ruhiy izlanishlardagi inson zotiga xos antologik, filogenetik va etnogenetik xususiyatlar ta’sirida yuzaga kelgan. Ushbu omillar mutafakkirlarning ma’naviy merosiga u yoki bu darajada ta’sir o‘tkazgani, shubhasiz. Demak, insoniyatning internatsionallashuvi XX asrning kashfiyoti emas, u uzoq tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida shakllangan umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar asosida yuzaga kelgan. Ushbu qadriyatlardan voz kechish yoki ularni mensimaslik ayrim elatlarni tor milliy qobiqda qolishga majbur etgan. Shuning uchun ham ma’naviy qadriyatlarimizni jahon ilm-u fani yutuqlari bilan boyitib borish, o‘zligimizni chuqurroq anglashga yordam beruvchi tarixiy-madaniy merosimizni o‘rganish bir-biri bilan mustahkam bog‘liq vazifalardir. [21]

Umumiyligi ta’kidlaganda, milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi. Ular rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘lib, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi. Milliy qadriyatlarni kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko‘zga tashlanib turishidan hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlardan bilib olsa bo‘ladi.

Mintaqada yashovchi xalqlarning milliy qadriyatları tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanib, takomillashib kelgan. Milliy qadriyatlar millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog‘liq holda shakllandı. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatları ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etdi. Shu tariqa mintaqamiz o‘ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib bordi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko‘ra, tor doirada to‘xtab qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi. Ma’lumki, har bir el, elat, urug‘ yoki xalqning urf-odatlarida o‘ziga xoslik bo‘ladi. O‘ziga xos qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozisi bilan o‘lchash yoki bu masalada

boshqalarning hakam bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. Umuminsoniylik tuyg‘usi faqat o‘z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko‘z-ko‘z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug‘ qadriyatlarini qanday holatda bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishdan boshlanadi. Shuning uchun ham bu borada oxirgi yillar davomida mamlakatimizda millatlararo totuvlikka alohida urg‘u berilishini inobatga olish lozim. [22]

Mintaqaga Islom dini kelganidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi. Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g‘oyalari va ko‘rsatmalari mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlarning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o‘tmishi, kelajagi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog‘langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakkarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ldi, o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar – yagona e’tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma’naviy yaqinlik, o‘tmish va ma’naviy meros, ona yurt tuyg‘usi va boshqalar barqaror hisoblanadi.

Xalqimizning ma’naviy merosi, an’analari, urf-odatlari, adabiyoti, san’ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo‘lish shakllari islomiy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Ular millatimizning tarixiy rivojlanish jarayonida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarda o‘z aksini topadi. Mintaqa xalqlarining aksariyati islom diniga e’tiqod qilishini inobatga olsak, mintaqaga tarixini, bugunini va kelajagini shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz.

Biroq, mana shunday islomning muqaddas tuyg‘usi qalbimizda joy olganiga qaramasdan, uning aksi o‘laroq “Diniy ekstremizm, terrorizm, shovinizm, separatizm” kabi tushunchalar nafaqat mamlakatimizda, balki butun mintaqada xavfsizlikni ta’minlashga harakat qilish uchun bиргаликда, bir yoqadan bosh chiqargan holda amalga oshirishni tarix, bugun va kelajak taqozo etadi. Chunki, xavfsizlik va barqarorlik faqatgina bugunning asosiy masalasi emasligi barchamizga ayondir.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun asosiy xavflardan biri sifatida, aynan diniy ekstremizm va terrorizm ekanligi uchun mintaqaga xavfsizligida islom omili o‘zining salmoqli roliga ega. Bu yo‘nalishda mintaqaga davlatlari hamkorlikda bir qator sa’y-harakatlarni olib bormoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizmga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi hamda tomonlarning barqarorligi va xavfsizligiga boshqacha tahdidlarga qarshi kurash yuzasidan hamkorlikdagi harakatlar to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi (*2000 yil 21 aprel kuni imzolangan*) ham mintaqaga davlatlari tomonidan mazkur xavfga jiddiy e’tibor qaratilganligi va qarshi kurashda birlashganligini ko‘rsatmoqda. [23]

Yuqorida to‘rt davlat rahbarlari tomonidan imzolangan hujjatda terrorizm, ekstremizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilikning barcha davlatlar tinchligi va xavfsizligiga tahdid soladigan va inson huquqlari, asosiy erkinliklari va jamiyatning demokratik asoslarini buzishga olib keladigan barcha shakl va ko‘rinishlarda o‘sib borayotgan ko‘lami va tendensiyalari haqida aloqa qilish, fuqarolarning hayoti, huquqlari va qonuniy manfaatlari, o‘z davlatlarining suvereniteti va hududiy yaxlitligiga jinoiy hujumlardan ishonchli himoyani ta’minalash, davlatlar xavfsizligiga putur yetkazishga, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy nifoq, siyosiy va diniy ekstremizmga qarshi birgalikda qarshi chiqish, Birlashgan Millatlar tashkilotining xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash, yaxshi qo’shnichilik va do’stona munosabatlarni rivojlantirish va davlatlar o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha maqsad va tamoyillariga sodiqligini tasdiqladilar.

Hozirda O‘zbekiston BMTning terrorizmnинг oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo‘mitasi tomonidan O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida “uch yovuz kuch”, ya’ni “terorchilik”, “ayirmachilik” (separatizm) va “ekstremizm”ga qarshi kurashda hamkorlikni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. 2004 -yildan beri Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMTning 48-(1993 yil sentabr), 50-(1995 yil oktabr), 55-sessiyalarda (2000 yil sentabr) va BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillikni rivojlantirish maqsadlari” (2010 yil) sammitidagi o‘z nutqlarida e’tiborini Markaziy Osioning dolzarb masalalariga urg‘u berdi. I.Karimov tashabbusi bilan BMT tomonidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalarini tinch yo‘l bilan hal qilishga qaratilgan qator rezolyutsiyalar qabul qilindi.

Xuddi shu masala yuzasidan Prezident Sh.Mirziyoyev ham 2017 yil 19- sentabr kunida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida o‘z fikrlarini bildirib, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta’minalashning muhim sharti bo‘lib qolishini ta’kidlaganlar. [24] Shu bilan birga Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018 yilning 22 iyunida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasini tomonidan birinchi marta qabul qilingan maxsus BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minalash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasini e’tirof etmasdan ilojimiz yo‘q.

Shuningdek, O‘zbekiston AQSH, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari kabi qator mamlakatlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Amalga oshirilayotgan bu sa’y-harakatlarning zamirida esa, avvalo, mamlakatimizda va

mintaqamizda xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan urinishlarni ko'rish mumkin. Qadimdan otabobolarimiz aytganidek, "Qo'shning tinch-sen tinch" iborasi orqali hukumatimiz qo'shnilarimiz tinchligiga erishish orqali mintaqqa xavfsizligini ta'minlashga va mamlakatimiz fuqarolarining osuda osmon ostida bexavotir yashashlariga imkoniyat yaratayotganligi tafsinga sazovordir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tarixiy va ma'naviy qadriyatlarning muhit xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy asoslarini qo'yidagicha talqin qilsa bo'ladi. Jumladan,

Birinchidan, Mintaqada yashayotgan xalqlarning tarixan bir makon, bir hududda ravnaq topish asosi bo'lib, unda Turon, Mavarounnahr, Turkiston, O'rta Osiyo va yakunda Markaziy Osiy nomlari bilan rivojlangan tarixiy birlikdir.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo xalqlarining ko'pchiligi e'tiqod qiladigan diniy asos. Bu borada boshqa dingga e'tiqod qiluvchi vakillar bo'lsa-da, lekin ular kamchilikni tashkil topganligi uchun asosiy e'tibor Islom diniga e'tiqod qiluvchilarning ijtimoiy asoslari inobatga olingan.

Uchinchidan, o'rganilayotgan mintaqada madaniy, ma'naviy qadriyatlarmiz birligi asosi. Bunda ushbu hududda istiqomat qiluvchi millatlarning madaniy, ma'naviy qadriyatlari, urf-odat, an'analarining bir-biriga juda yaqin ekanlidir.

To'rtinchidan, Mustaqillikdan keyingi beshala davlatlarning umumiy birdamlikka asoslangan rivojlanish bosqichlari. Aynan mustaqillikdan keyin O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston davlatlari rahbarlarining mustaqillikni saqlab qolish va birgalikda rivojlanishga qaratilgan sa'y-harakatlar hamda bugungi kunda mintaqani har taraflama barqaror rivojlanishiga qaratilgan siyosatni e'tirof etsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Markaziy Osiyo hududida xavfsizlik borasida shakllangan qarashlar va g'oyalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqamiz hududida xavfsizlik xususidagi fikrlarning shakllanish davri uzoq tarixga ega bo'lib, biz katta ilmiy, siyosiy, madaniy meros va qadriyatlarga ega ekanligimizdan faxrlanamiz. Mazkur meros va qadriyatlarni o'rganish, chuqur tahlil qilgan holda zamonaviy sharoitga moslashtirib, mintaqqa davlatlarining milliy manfaatlar va maqsadlarini to'g'ri anglashning, Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy xavfsizligini ta'minlash tizimini samarali shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda jahon tajribasidan foydalangan holda, zamonaviy uslublarni qo'llash orqali tarixiy va ma'naviy qadriyatlarning muhit xavfsizlikni ta'minlovchi ijtimoiy asoslarini yanada mustahkam qilish maqsadga muvofiqli.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning sa'y-harakatlari natijasi sifatida nafaqat mamlakatda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ma'naviy barqaror bo'ladigan muhitni shakllantirish masalasi turgan edi. "Hozir bizning jamiyatimiz tarixiy chorrahada turibdi. Respublikani milliy-davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishimiz zarur. Bu murakkab va mas'uliyatli palladir. Hozir yashab

turganlarning taqdirigina emas, balki ularning farzandlari, nevaralarining ham taqdiri, kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog‘liq bo‘ladi.” [25] -degan edi I.A.Karimov.

Olib borilgan to‘g‘ri siyosatning samarasi sifatida bugungidek nurafshon va tinch zamonlarga yorug‘ yuz bilan yetib keldik. Sababi, bugungi kunda O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilgan oqilona va odilona siyosatning mevasi Markaziy Osiyo mintaqasining ma’naviy jihatdan barqaror muhitni shakllantirilishiga asos bo‘ldi. [26]

XXI asr shu bilan xarakterlanadiki, bugungi kunga kelib, insoniyatning jami borlig‘ini belgilaydigan epitsentr iqtisodiyotdan, siyosatdan o‘tib ma’naviyatga borib taqaldi. Chunki aynan ma’naviyat kishilar borlig‘ining barcha parametrlarini belgilaydigan konsensusga aylandi. [27]

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yil Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiyligi kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada [28] “**Preventiv diplomatiya**”ni yo‘lga qo‘yish bilan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash mumkinligini ta’kidlagan edilar. Biz qo‘shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo‘lini izchil davom ettiramiz. Ularning tinch va farovon hayoti – butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz. [29] Aynan mamlakatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan siyosat, preventiv diplomatiyaga asoslangandir.

Preventiv diplomatiya - tomonlar o‘rtasida kelishmovchiliklarning kelib chiqishining oldini olishga, mavjud kelishmovchiliklarning ziddiyatga aylanishining oldini olishga hamda mavjud ziddiyat tarqalishini cheklashga qaratilgan diplomatik harakatlar. [30]

Birinchi marta preventiv diplomatiya g‘oyasini BMTning uchinchi Bosh kotibi Dag Yalmar Agne Karl Xammarshyold 1950 -yilda ilgari surgan. Preventiv diplomatiya g‘oyasi paydo bo‘lgandan so‘ng o‘zgaruvchan dunyoning yangi holatlarini hisobga olgan holda rivojlandi. Sovuq urush tugaganidan keyin BMTning yettinchi Bosh kotibi Butros Butros-G‘oliv 1992 -yil 2-iyuldagagi ma’ruzasida preventiv diplomatiya tushunchasini shakllantirdi.

Shunday qilib, preventiv diplomatiya g‘oyasi paydo bo‘ldi. BMTning Bosh kotibi, Dag Xammarshyoldning dunyo siyosatidagi tig‘iz kundaligiga qaramasdan, BMT Nizomiga asosan ma’muriy xodimi bo‘lishi barobarida, g‘ayritabiyy yoki haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan narsalarni taklif qilishini tasavvur qilish qiyin. Xammarshyold o‘z fikrida mojaroni butunlay bartaraf qilish emas, balki uni chegaralagan holda tarqalib ketishining oldini olish hamda boshqa kuchlarning aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida edi. Bu orqali “sovuq urush”ni kengayishining oldini olish, shu bilan birga, gegemon davlatlar manfaatlari atrofida yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal yetishda BMTning rolini oshirish imkonini berishi taxmin qilingan edi. [31]

Preventiv diplomatiya konsepsiyaning shakllanishida ishtirok etgan sobiq BMT Bosh kotibi Butros Butros-G'oliyning klassik versiya bilan bog'liq. Unga ko'ra, a) ishonch choralarini amalga oshirish, b) rasmiy yoki norasmiy bo'lsa-da, axborot to'plagan holda ertaroq ogohlantirish, v) preventiv joylashtirish choralar, d) demilitarizatsiyalashgan zonalarni tashkil etish kabi choralar ko'riliishi lozim. Aslida, Butros-G'oliy preventiv diplomatiyani faqatgina tinchlikni saqlash shakllaridan biri sifatida emas, balki birinchilardan bo'lib, preventiv diplomatiyani amalga oshirish shakllarini ko'rsatib berdi. [32]

Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi davrida preventiv diplomatiyadan foydalanishidan nafaqat mintaqqa davlatlari, balki Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham manfaatdordir. Shu maqsadda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi BMTning maxsus siyosiy missiyasi bo'lib, bu 2007-yilda Markaziy Osiyodagi besh davlatlar hukumatlari tashabbusi bilan tashkil etilgan va shtab kvartirasi Turkmanistonning Ashxobod shahrida joylashgan. Markazning asosiy vazifasi Markaziy Osiyo davlatlariga mintaqada tinchlik va xavfsizlikka mavjud tahdidlarni aniqlash hamda bartaraf etishda ko'maklashishdan iborat. Bundan tashqari, Markaz Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sheriklik munosabatlarini targ'ib qiladi.

Mintaqaviy Markazning tashkil etilishiga Birlashgan Millatlar tashkiloti va Markaziy Osiyo hukumatlari o'rtasida 2007-yilda muvaffaqiyatli yakunlangan bir necha yillik maslahatlashuvlar sabab bo'ldi. Aynan shu -yilning may oyida esa BMT Bosh kotibi xavfsizlik Kengashini markazni tuzish niyatidan xabardor qilib, Markaziy Osiyo mamlakatlarining besh hukumati Ashxobodda BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazini (MOPDMM) tuzish bo'yicha kelishuvga erishganini ta'kidladi. Markaziy Osyoning besh mamlakatiga ko'ra, BMTning muzokaralar uchun qulay sharoit yaratishga va mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlarini hisobga oluvchi kelishuvlarga erishishga qodir xolis tashkilot sifatidagi ijobiy qiyofasi bu jarayonda hal qiluvchi omilga aylandi.

MOPDMM rasmiy ochilishi 2007-yilning 10-dekabrida Ashxobodda bo'lib o'tdi. Preventiv diplomatiya markazini tashkil etishni taklif qilishda mintaqqa hukumatlari Markaziy Osiyo oldida turgan ko'plab tahdidlarni, jumladan, xalqaro terrorizm va ekstremizm, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik va ekologik tanazzulni hisobga oldi. [33]

Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari o'rtasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish va mavjud tahdidlarni bartaraf etishda muloqot qilmoqda; tinchlikparvar sa'y-harakatlar va tashabbuslarni targ'ib qilishda mintaqada faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar bilan muntazam aloqalarni qo'llab-quvvatlaydi; nizolarni oldini olish bo'yicha qo'shma sa'y-harakatlar bo'yicha ma'lumotlarni

muvofiqlashtiradi va almashadi; barqaror rivojlanish va mojarolarni oldini olish sohasida ishlaydigan boshqa BMT agentliklari bilan hamkorlik qiladi.

BMT markazi o‘z faoliyatida xolislik pozitsiyasiga amal qiladi. Muammoni hal qilishning mavjud modellarini qo‘llashni talab qilmaydi, balki Markaziy Osiyo mintaqasining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keluvchi mahalliy modellarni ishlab chiqishga ko‘maklashishga harakat qiladi.

Markaz Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari bilan maslahatlashgan holda ishlab chiqilgan harakat dasturlari doirasida tinchlik, xavfsizlik va taraqqiyot yo‘lidagi mintaqaviy muammolarni hal yetishga qaratilgan umumiy tashabbuslarni amalga oshiradi. Markazning oxirgi 2021-2025-yillar uchun harakat dasturi Markaz mandatiga muvofiq beshta asosiy ustuvor yo‘nalishga qaratilgan:

- 1) Markaziy Osiyo hukumatlari o‘rtasidagi munosabatlarda preventiv diplomatiyani targ‘ib qilish;
- 2) Mojarolarning oldini olish maqsadida monitoring olib borish va ogohlantirish;
- 3) Mojarolarni oldini olish uchun hamkorlik o‘rnatish, shu jumladan mintaqaviy va mintaqaviy tashkilotlar bilan;
- 4) Mintaqada BMTning preventiv faoliyatini mustahkamlash;
- 5) Markaziy Osiyo davlatlari va Afg‘oniston o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro aloqalarni rag‘batlantirish. [34]

2018-yilning 29-oktabr kuni Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi hamkorligida Markaziy Osiyo ekspertlar forumining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi.

Majlisning O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistondan tashrif buyurgan nufuzli ishtirokchilari Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning joriy holati va istiqbollarini muhokama qilish bilan birga, so‘nggi -yillar mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tarixiy va jadal o‘zgarishlar davri bo‘lgani, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda aniq maqsadli strategik sheriklik munosabatlari qaror topganini ta’kidladilar.

Markaziy Osiyo mamlakatlari barqaror kelajak qurishdek mushtarak maqsad yo‘lida dadil intilmoqda, – deydi Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar markazi tashqi siyosat tahlil departamenti boshlig‘i Abdulloh Rahnamo. Bu boradagi imkoniyatlarni birlashtirish, tajriba va fikr almashish, yagona g‘oya atrofida birlashish uchun tomonlarda siyosiy iroda mavjud. O‘z mamlakatining siyosat yo‘lini, integratsiya konsepsiyasini ishlab chiqishda ishtirok etadigan tahlil markazlari, tadqiqot institutlari vakillari bugun umumiy qiziqishlarni

ro‘yobga chiqarish maqsadida jam bo‘ldi. Yangi formatdagi uchrashuv mamlakatlarimiz o‘rtasida doimiy siyosiy maslahatlashuvlarni olib borish, aniq strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirishda muhim o‘rin tutishiga ishonaman. [35]

Stratfor Worldview saytida e’lon qilingan “Uzbekistan Comes in From the Cold” nomli maqolada “...izolyatsionizm uzoq -yillar davomida O‘zbekistonning tashqi dunyo bilan munosabatlarini belgilab keldi. Biroq Markaziy Osiyoning eng aholisi zinch joylashgan mamlakatidagi islohotlar Toshkentdan ancha uzoq joylarda ham akssado bermoqda. O‘zbekiston siyosiy evolyutsiyasi – tadriji natijasi o‘laroq, Markaziy Osiyodagi qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash barobarida Rossiya, Xitoy va Qo‘shma Shtatlarning ham tobora jozibador hamkoriga aylanib bormoqda, chunki ular mintaqaga ta’sir ko‘rsatish yo‘lidagi strategik raqobatlashuv va investitsiyalar kiritishda qatnashmoqda. O‘zbekistonning ochilayotgani unga o‘z mintaqasidagi iqtisodiy va xavfsizlik sohalaridagi faoliyatini kengaytirish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratadi...”. [36]

Nafaqat O‘zbekiston balki, butun dunyoda preventiv diplomatiyaga alohida e’tibor qaratib kelindi. Shu sababli, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borilayotgan preventiv diplomatiyasi o‘zining ijobjiy natijalarini berib kelmoqda. 2020-yilning o‘zida qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlarda yaqin qo‘shnichilik, bir-birini tushunish, murosa va muomala qilish kabi preventiv diplomatiya bir necha bor qo‘llanganligini aytish mumkin. Misol uchun, birinchi bo‘lib 2020-yil dunyo davlatlariga kirib kelgan koronavirus pandemiyasi davrida Sh.M.Mirziyoyev mintaqadagi qo‘shni davlatlar rahbarlari bilan muntazam telefon orqali bog‘lanib turganligi, ularga va boshqa davlatlarga gumanitar yordamlar jo‘natib, ular ahvoldidan xabar olindi (Xitoya-12.02.2020, Eronga-12.03.2020, Qirg‘izistonga 02.04.2020 va 15.11.2020, Rossiyaga-2020-yil 18, 20 va 23 aprel kunlari, Tojikistonga-30.05.2020 va h.k.). Bunda yaqin qo‘shnichilik tamoyiliga asoslanib diplomatik munosabatga kirishilgan.

Keyin, 2020-yil 1-may kuni kutilmaganda Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborida yuzaga kelgan tabiiy ofat nafaqat Sirdaryo viloyati aholisi, balki qo‘shni Qozog‘iston respublikasi aholisiga ham ancha noqulayliklar keltirib chiqardi. Ikkala davlat rahbarlarining o‘zaro kelishuviga asosan O‘zbekiston hukumati rahbari, Prezident maslahatchisi darhol talafotdan zarar ko‘rgan qo‘shni davlat hududiga bordi. Barcha resurslar jalb etilib, O‘zbekiston tomonidan Qozog‘istonda fuqarolariga imkon qadar yordamlar ko‘rsatildi. Agarda mazkur vaziyatda o‘zaro bir-birini tushunish tamoyili asosidagi diplomatik munosabat bo‘lmaganida, ikkala tomon ham uzoq tortishishlari, shundoq ham tarang bo‘lib turgan vaziyat yanada keskinlashishi mumkin edi.

So‘ngi misol sifatida 2020-yilning 1-iyun kuni O‘zbekistonning Qirg‘izistondagi anklavi, Farg‘ona viloyati So‘x tumanida O‘zbekiston va Qirg‘iziston fuqarolari o‘rtasida yuzaga kelgan janjalni keltirish mumkin. Bu gal ham voqealoyiga hukumat rahbarining zudlik bilan yuborilishi,

Qirg‘iziston hukumati vakillari bilan muzokaralar, ikki mamlakat rahbarlarining telefon orqali muloqoti vaziyat keskinlashishining oldi olindi. Agarda yuzaga kelgan mojaroga e’tiborsizlik qilinganida bu ikki davlatning tinchi yo‘qolishi, o‘zaro hal qilinadigan muammoga boshqa davlat yoki tashkilotlarning aralashishiga to‘g‘ri kelardi. So‘x tumanidagi mojaro shu bilan butunlay barham topdi deyish qiyin, biroq, bu mojaro keskinlashib ketishining oldi olindi. Bu yuqorida aytganimiz murosa va muomala tamoyiliga asoslangan preventiv diplomatiyadir.

Aynan yuqorida keltirilgan misollarda Markaziy Osiyo mintaqasida ham preventiv diplomatiya orqali mintaqada ma’naviy muhit barqarorligi ta’minlab kelinmoqda.

Darvoqe, YEXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori Jon Makgregor “O‘zbekiston rahbariyati konfliktning oldini olishda eng yaxshi xalqaro amaliyotni qo‘lladi. YEXHT mintaqasi va butun dunyo uchun a’lo darajadagi namuna bo‘ldi”, deb qayd etdi.

BMTning O‘zbekistondagi koordinatori Helena Freyzer esa “O‘zbekiston va Qirg‘iziston rahbaryatinining So‘x anklavidagi kechagi og‘riqli insidentga zudlik bilan konstruktiv yondashgani e’tiborga molik. Barqaror tinchlik mana shunday bo‘ladi”, deb ta’kidladi. [37]

O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sod Qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi”ning II bob (Doktrinaning harbiy-siyosiy jihatlari), 3-bo‘limi (O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati), 10-bandi so‘ngida “xalqning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga va o‘ziga xos madaniy tamadduniga tayanish”[38] punkti kiritilganligi ham mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan siyosatimizning bosh mezoni nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqqa xalqlari uchun ma’naviy barqaror muhitni shakllantirishdan iborat ekanligini ko‘rsatmoqda. Mazkur holat “O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiysi”da [39] ham alohida qayd etilganligini ko‘rish mumkin.

Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar o‘zaro munosabatlarga kirishishda, hamkorlik va aloqalarni bog‘lashda birinchi navbatda o‘z davlatining manfaatlarini ko‘zlagan holda amalga oshiradi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda mintaqada turli ustuvor yo‘nalishlar, ayniqsa, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini yanada rivojlantirish borasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish, Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish, Markaziy Osiyo davlatlari hududida fuqarolar erkin harakati, shuningdek, tovarlar, xizmatlar va kapitalning sun’iy cheklovlarisiz aylanishiga bosqichma-bosqich erishish, shuningdek, umumiyy sayyohlik makonini shakllantirish ishlarini davom ettirish, Afg‘oniston bilan ko‘p qirrali va o‘zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy

tkilanishiga yaqindan ko‘maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shish ishlari alohida e’tiborga olingan. [40]

Barchaga ma’lumki dunyoni manfaatlari boshqaradi, umumiy manfaatlar esa davlatlararo munosabatlarni shakllantiradi va birgalikda harakatga undaydi. Shu jumladan, O‘zbekiston mintaqaviy muammolarni hal qilishda o‘ziga xos strategik mavqega ega. Bu quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- O‘zbekiston geografik jihatdan qulay joyda joylashgan va u mintaqaning geosiyosiy yadrosi hisoblanadi;
- Davlat xom ashyo va energetika jihatdan mustaqil, iste’mol bozori uchun zarur bo‘lgan ko‘plab xom ashyo resurslariga ega;
- O‘zbekiston harbiy siyosiy jihatdan muhim strategik hudud hisoblanadi;
- Butun mintaqaga ta’sir o‘tkazadigan kuchli ma’naviy markazlar mavjudligi;
- Madaniy tarixiy jihatdan katta yutuqlarni qo‘lga kiritganligi va ular mintaqqa xalqlarini o‘zaro yaqinlashtirishga xizmat qilishi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlik kafili sifatidagi mavqeyi tobora mustahkamlanib bormoqda. [41]

Markaziy Osiyo mintaqasida barcha davlatlar uchun muhim bo‘lgan ma’naviy barqaror muhitni ta’minlash uchun tashqi siyosatimizda belgilangan ustuvor yo‘nalishlarda olib borilayotgan siyosatimizni yanada rivojlantirgan holda, bunga qo‘shni davlatlarning tashqi siyosatining ustuvor vazifalari bo‘lishiga ishontirishimiz lozim bo‘ladi. Ma’naviy jihatdan barqaror shakllanishdan esa mintaqqa dalatlari manfaatdor. [42]

Xususan, davlatlar uchun hayotiy muhim bo‘lgan belgilar, chegara daxlsizligi, hududning xavfsiz bo‘lishi, fuqarolar tinchligi, o‘zaro munosabatlarda ishonch va bir-biriga suyanish kabi tamoyillarni mintaqqa davlatlari uchun zarur ekanligiga ishontirish lozim. Bu borada mamlakatimiz rahbari tomonidan davlatimiz, mintaqqa va xalqaro miqyosda bo‘layotgan tadbirlarda berayotgan taklif va tashabbuslari va uning xalqaro hamjamiyat tomonidan ma’qullanayotganligidan ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilgan muhim tashabbuslarini o‘rganish maqsadida “Yuksalish” umummilliylar harakati tomonidan 2019 - yilda ekspertlik so‘rovi o‘tkazilib, TOP-10 talik aniqlandi. Tajribali iqtisodchilar, siyosiy sharhlovchilar, yetuk olimlar, madaniyat arboblari, nufuzli jurnalistlar, huquq himoyachilar hamda mustaqil tadqiqotchilardan iborat 100 nafar mahalliy va xorijiy ekspertlar tomonidan aniqlangan 10 ta muhim tashabbusdan 2 tasi mintaqada olib borilayotgan islohot ekanligi quvonarlidir.

Unga ko‘ra, 1-o‘rin. Eng muhim tashabbus deya, yaxshi qo‘snnichilik munosabatlari, chegaralarning ochilishi va nazorat-kiritish punktlarining tashkil etilishi bo‘ldi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha masalalar bo‘yicha konstruktiv muloqot o‘rnatilgani e’tirof etildi — 96 ta ovoz;

10-o‘rin. Mintaqaviy xavfsizlikni ta’milanishi bo‘yicha chora-tadbirlar, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish bo‘yicha xalqaro muloqotning kuchaytirilishi — 57 ta ovoz. [43]

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning taklif va tashabbuslaridan shuni anglash mumkinki, har bir taklif va tashabbus butun Markaziy Osiyo mintaqasida preventiv diplomatiya asosida o‘zaro hamkorlik qilishga, o‘zaro hamkorliklarni amalga oshirish uchun qanday boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish kerakligi to‘g‘risida aniq va ravshan ko‘rsatmalardan iboratdir.[44]

Mintaqa davlatlari o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatlar, yaxshi kayfiyatdagি hamkorlik aloqalari mintaqadan o‘z manfaatlari yuzasidan foydalanishni ko‘zlab turgan atrofidagi ayrim qudratli davlatlarga unchalik ham ma’qul emas. Buni ko‘rib, his qilib turgan Markaziy Osiydagи davlatlar o‘zları boshlagan ishlarni, xususan, o‘zaro kelishgan holda muammolarni bartaraf etish, qo‘sni davlatlar manfaatlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirish, mayjud muammolarni bartaraf etish maqsadida boshqa davatlardan yordam so‘ramasdan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari kabi mintaqaviy yig‘ilishlarda o‘zaro murosa va madora ko‘chasini tanlash orqali mintaqada amalga oshirilayotgan preventiv diplomatiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

XULOSA

Markaziy Osiyo hududida ma’naviyat borasida shakllangan qarashlar va g‘oyalar merosi va qadriyatlarini o‘rganish, chuqur tahlil qilgan holda zamonaviy sharoitga moslashtirish, bu borada zamonaviy uslublarni qo‘llash orqali tarixiy va ma’naviy qadriyatlarning muhit xavfsizlikni ta’minlovchi ijtimoiy asoslarini yanada mustahkam qilish maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyo integratsiyasining jamiyat ma’naviy muhitni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tashabbus mintaqasi va uning kelajagi tarixiga hamda ma’naviy barqaror muhitiga qarab birlashadi. Mintaqasi integratsiyasi u yerda istiqomat qilayotgan xalqning bir-biriga yaqin bo‘lgan tarixi, an’analari, udumlari va urf-odatlari orqali yanada tezlashadi, taraqqiy etadi va ma’naviy muhitda namoyon bo‘ladi.

Ma’naviy barqaror muhitni ta’minlash uchun mintaqasi davlatlari o‘zaro hamkorlikni tarixiy birlikka, o‘zaro yaqin qo‘snnichilikka, diniy va dunyoviy bag‘rikenglikka asoslansagina istiqboli porloq bo‘ladi. Bu esa Markaziy Osiyoda olib borilayotgan preventiv diplomatiyanı rivojlantirish borasida yangicha boshqaruv texnologiyalarini yaratish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabr kungi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. Иккинчи нашр. Тошкент: "Ўзбекистон", 2015. – Б. 30.
3. Қаххорова М., Тўйчиева Ҳ., Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит ва унинг асосий индикаторлари. The Light of Islam, 4-сон 2019 йил. Б. 191.
4. Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Академия, 2007. – Б. 59.
5. Сайдолимов С.Т. Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлаш муаммолари. С.ф.н. диссертация. – Тошкент. 2009. –Б. 79, 85.
6. Тўйчиева С. Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессор, ф.ф.д. Марказий Осиё мутафаккирларишахс маънавиятининг шаклланишида миллий ва умумисоний қадрияtlарнинг аҳамияти хақида.
7. Рахматуллаев Э. Превентивная дипломатия: теория, практика и ее перспективы в Центральной Азии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора политических наук. – Москва. 2008. – Б. 11- 12, 45-46.
8. Хайдаралиев Ш.А., Марказий Осиё минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда халқаро ташкилотлар ва Ўзбекистоннинг ўрни (1991-2010 йй.) Т.ф.н. ... дисс. – Наманган.: 2012. –Б. 166.
9. <https://president.uz/oz/lists/view/6941>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabr kungi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Xalqaro jamoatchilik harakatini rivojlantirish jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi Raisi I. Karimovning 1996 yil 21 noyabr kungi 407-son Qarori.
12. Каримов. И.А. Туркестон умумий уйимиз. –Тошкент: Ўзбекистон.1995. – Б. 16.
13. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. – Тошкент: Ўзбекистон. 2004. – Б. 214.
14. Назаров Н.А. Марказий осиё полиграфик социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий-функционал тадқиқи. ф.ф.д. (DSc) дисс.. автореферати. – Тошкент. 2019. – Б. 15.
15. Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Академия, 2007. – Б. 59.

16. Сайдолимов С.Т. Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлаш муаммолари. Сиёс. фан. ном. дисс. ... – Тошкент. 2009. – Б. 85.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2019 yil 29 noyabr kuni Toshkentda o‘tkazilgan ikkinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha brifingdagi bayonoti. <https://president.uz/uz/lists/view/3111>

18. Meliboyev A., “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri. Mushtarak ma’naviy qadriyatlar va do’stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan dadil qadam. <http://xs.uz/uzkr/post/mushtarak-manavij-qadriyatlar-va-dostlik-rishtalarini-yanada-mustahkamlashga-qaratilgan>

19. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.– Б. 101.

20. <https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan...>

21. Тўйчиева С. Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессор, ф.ф.д. Марказий Осиё мутафаккирлари шахс маънавиятининг шаклланишида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг аҳамияти ҳақида. The Light of Islam, № 2. 2019. <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?artic>.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevral kungi PF-4947 son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 19 may kungi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 15 noyabr kungi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvar kungi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabr kungi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

23. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 26 may, 85-II-son “Qozog‘iston Respublikasi, Qирг‘изистон Respublikasi, Тојикистон Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi hamda Tomonlarning barqarorligi va xavfsizligiga boshqacha tahdidlarga qarshi kurash yuzasidan hamkorlikdagi harakatlar to‘g‘risidagi Sharhnomalar ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-2839528>

24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблейсининг 72-сессиясидаги нутқи. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
25. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқол, иқтисод, сиёsat, мафкура. “Ўзбекистон”, –Тошкент, 1996, -Б. 26.
26. Iymanov J.S. Markaziy Osiyodagi tarixiy va ma’naviy qadriyatlarning O’zbekistonda ma’naviy barqaror muhitni ta’minlashdagi ro’li. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, Volume 2, Issue 11, 13-bet, <https://humoscience.com/index.php/ss/article/view/2756>
27. Қаххорова М., Тўйчиева Ҳ., Жамиятда маънавий-ахлоқиймуҳит ва унинг асосий индикаторлари. The Light of Islam, № 4 2019. - Б. 191.
28. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o’tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan. <https://president.uz/uz/lists/view/1227>
29. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 8.
30. Бутрос Бутрос-Гали. Повестка дня для мира. Превентивная дипломатия, миротворчество и поддержание мира (доклад Генерального секретаря ООН). — 2 июля 1992. — С. 6.
31. Рахматуллаев Э. Превентивная дипломатия: теория, практика и ее перспективы в Центральной Азии. Автореферат док. Полит. наук. –Москва. 2008. – С. 11- 12.
32. Рахматуллаев Э. Превентивная дипломатия: теория, практика и ее перспективы в Центральной Азии. Автореферат док. Полит. наук. – Москва, 2008. – С. 45- 46.
33. <https://unrcca.unmissions.org/ru/история-создания-миссии>
34. <https://unrcca.unmissions.org/ru/программы-действий>
35. <https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3291/>
36. <https://worldview.stratfor.com/article/uzbekistan-comes-cold-bri-russia-central-asia-china>
37. <https://www.xabar.uz/siyosat/preventiv-diplomatiya-qoshnilar-bilan-yaxshi-aloqa>
38. <https://lex.uz/docs/3495885>
39. [Uzbekistan 2035.uz › wp-content › uploads › 2019/05›](https://Uzbekistan 2035.uz › wp-content › uploads › 2019/05)
40. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabr kungi PF-158-son “O’zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

41. Хайдаралиев Ш.А., Марказий Осиё минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда халқаро ташкилотлар ва Ўзбекистоннинг ўрни (1991-2010 йй.) Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган: 2012. –Б. 166.

42. Ийманов Ж.С. Узбекистан и его значение в обеспечении духовной устойчивости в Центральной Азии, Россия. Международная конференция академических наук. 2022/5/25, 24-стр. <https://zenodo.org/record/6572781#.YpFmuWhBxPY>

43. <https://kun.uz/news/2019/07/24/shavkat-mirziyoyevning-10-ta-eng-muhim-tashabbusianiqlandi>

44. Ийманов Ж.С. Марказий осиёда маънавий барқарор муҳитни таъминлашда превентив дипломатиянинг аҳамияти. ЎзМУ хабарлари, 2022, [1/11], 116-бет, <https://science.nuu.uz>